

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/8 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM VA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH: SAMARQAND VILOYATINING SALOHIIYATI	8-11
--	------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayarova Zuhra, Turayev Baxtiyor</i> HUDUDDA ASALARICHILIK FAOLIYATINING UY XO'JALIKLARI DAROMADLARIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH	12-22
<i>Dr. Abror Kucharov, Dr. Jyoti Meshram</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF INDIAN INVESTMENT IN CENTRAL ASIA AND ITS RELEVANCE FOR UZBEKISTAN	23-32
<i>Qodirov Abubakr, Egamberdiyev Muzaffar</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING TAYANCH HUDUDI: FARG'ONA VILOYATI VA UNING IQTISODIY TARMOQLARI	33-37

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF ESTETIKASIDA GO'ZALLIKNING TARBIYAVIY POTENSIALI	38-43
---	-------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Muxammadieva Mashxura, Amirqulova Gulxayo</i> TIBBIY TERMINOLOGIYANI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	44-49
<i>Naimova Parvina Rustamovna</i> O'ZBEK TILIDA HAYVON OBRAZLARINING FRAZELOGIZMLARDA VA MAQOLLARDA INSON XARAKTERI VA XULQINI IFODA ETISHI	50-54
<i>Tashxujayeva Nigora Madaminjanovna</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA MIFOLOGEMALARNING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI	55-58

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Zokirov Sherzod</i> MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI QARORLARI QONUNIYLIGI USTIDAN PROKUROR NAZORATINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	59-65
<i>Mirzaabdullayeva Matluba Rustamovna</i> YER SERVITUTINI RIVOJLANISHI	66-70
<i>Uzbekova Dilshoda Tulkinovna</i> ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	71-80

<i>Yo'ldoshev Ilhom Abdujalil o'g'li</i> KIBERKORRUPSION JINOYATLAR BO'YICHA AYRIM ILMIY-NAZARIY MULOHAZALAR	81-87
<i>Adizov Alibek Oybek o'g'li</i> ZARARNING TO'LIQ QOPLANISHI MUNOSABATI BILAN JINOYAT ISHLARINI SUDGACHA TUGATISH: NAZARIY VA AMALIY MASALALAR	88-94
<i>Xoligova Gavhar Ramazon qizi</i> CHET EL ELEMENTI BILAN MURAKKABLAHGAN ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY HUQUQIY JIHATLARI	95-99
<i>Низомова Настарин Владимировна</i> МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В СФЕРЕ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЯПОНИИ И УЗБЕКИСТАНА	100-107
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>To'raeva Gulchiroy Sheralievna</i> RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH	108-114
<i>Xodjayev Anvar Zakirovich</i> OG'IR ATLETIKADA DAST KO'TARISH MASHQINI BAJARISHGA O'RGATISH USLUBIYATI	115-125

Received: 31 August 2025
Accepted: 15 September 2025
Published: 30 September 2025

Article / Original Paper

SOME SCIENTIFIC AND THEORETICAL CONSIDERATIONS ON CYBERCORRUPTION CRIMES

Yuldoshev Ilkhom

master of law in law enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. In this article, can see the opinions of some scientists on the topic of cyber corruption and the proposal to the concept of “cyber corruption”, which justifies the author's definition of the scientific community, as well as the necessary signs of cyber corruption crimes and the need to develop national regulatory documents related to the fight against cyber corruption.

Keywords: cybercrime, corruption, cyber corruption, IT, anonymity, latency, cryptocurrency, crypto-asset.

KIBERKORRUPSION JINOYATLAR BO'YICHA AYRIM ILMIY-NAZARIY MULOHAZALAR

Yo'ldoshev Ilhom Abdujalil o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi huquq magistri

E-mail: ilkhomyuldoshev77@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kiberkorupsiya mavzusiga doir ayrim olimlarning fikrlari hamda “kiberkorupsiya” tushunchasiga ilmiy jamoaning mualliflik ta'rifini, shu bilan birga kiberkorruption jinoyatlarning zarur belgilarini va kiberkorupsiyaga qarshi kurashish bilan bog'liq milliy normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish zarurligini asoslovchi taklifni ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: kiberjinoyatchilik, korupsiya, kiberkorupsiya, axborot texnologiyalar, anonimlik, latentlik, kriptovalyuta, kripto-aktiv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI8Y2025N12>

“Hozirgi texnologiyalar davrida korruptsiyaning yangi, raqamli ko'rinishlari paydo bo'lmoqda. Shu bois xalqaro tajribani o'rganib, kiberkorruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mustahkam huquqiy baza yaratish zarur!”

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Sh.M.Mirziyoyev**

Zamon tez fursatda rivojlanib, butun dunyoni raqamli texnologiyalar bir zum o'tmay egallab bormoqda. Har sohani axborot texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin bo'lgan davrdamiz. Shuni ta'kidlash joizki, axborot texnologiyalar insoniyat hayoti va uning ish faoliyatiga yengillik yaratish maqsadida yaratilganligi albatta, bizga ma'lum, ammo, *“Guruch kurmaksiz bo'lmaydi”* deganlaridek, butun hayotimizni qamrab olgan raqamli texnologiyalardan noto'g'ri maqsadlarda foydalangan holda jinoyatlarni sodir etayotganlarni ham ko'rish hayratlanarli hodisa bo'lmay qoldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Misol uchun,

o'g'rilik va firibgarlik jinoyatlarini axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilayotganligi, shuningdek, omma tilida esa **“kibero'g'rilik”** va **“kiberfiribgarlik”** deb nomlangan jinoyatlar aynan bizga tanish bo'lgan kiberjinoyatlar turkumiga kiruvchi shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi 3-qismi “g” bandida ya'ni firibgarlik jinoyatini *“axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan bo'lsa[1]”* degan jumla bilan **“kiberfiribgarlik”** jinoyati uchun hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasi 3-qism “d” bandida esa o'g'rilik jinoyatini *“qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) axborot tizimiga kirib yoki undan foydalanib[1]”* degan jumladan foydalangan holda **“kibero'g'rilik”** uchun jinoiy javobgarlik belgilangan ijtimoiy xavfli qilmishlardan hisoblanib, ularning qanday jinoyat ekanligi, sodir etish usullari, shakllari va foydalaniladigan vositalari o'rganilib, ular bo'yicha nafaqat milliy balki xorijiy olimlar tomonidan ilmiy maqola, risola, qo'llanma va ilmiy ishlar ishlab chiqilgan hamda ko'plab davlatlarning Jinoyat qonunchiliklarida javobgarlik belgilandi. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu jinoyatlar uchun milliy va ko'plab xorij davlatlarning jinoyat qonunchiligida aynan kibero'g'rilik yoki kiberfiribgarlik uchun alohida yangi modda ishlab chiqilmagan bo'lsada, lekin, yuqorida milliy jinoyat qonunchiligimizda belgilanganidek, o'g'rilik va firibgarlik jinoyatlari uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddalarga qo'shimcha tariqasida bandlar qo'shib ularda ushbu omma tilidagi **“kibero'g'rilik”** yoki **“kiberfiribgarlik”** uchun jinoiy javobgarlik masalasi ko'rsatilgan.

Bundan tashqari, umumiy tarzda **“kiberjinoyatlar”** deb yuritiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun milliy qonunchiligimizda ya'ni Jinoyat kodeksining *“axborot texnologiyalar sohasidagi jinoyatlar”* deb nomlangan bobi Jinoyat Kodeksining 278¹–278⁹ – moddalarini[1] o'z ichiga olgan holda, axborotlashtirish qoidalarini buzish; kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish; kompyuter tizimidan, shuningdek telekommunikatsiya tarmoqlaridan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash yoxud o'tkazish va tarqatish; kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish; kompyuter sabotaji; zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish; telekommunikatsiya tarmog'idan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish; kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish; mayning faoliyatini qonunga xilof ravishda amalga oshirish kabi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Ma'lumot uchun, kiberjinoyatlar dunyo davlatlariga 2023-yilda 8,27 trln. AQSH dollari, 2024-yilda 9,5 trln. AQSH dollari miqdorida zarar keltirgan bo'lsa, 2025-yilning oxirigacha bu ko'rsatgich 10,5 trln. AQSH dollariga yetishi prognoz qilinmoqda[14].

Yurtimizda ushbu kiberjinoyatlarning yana bir dolzarb turi sifatida e'tirof etilayotgan va hozirgi kunda **“kiberkorrupsiya”** tushunchasi bilan ifodalanayotgan korrupsiyaning yangicha to'lqinini ko'rish mumkin bo'ladi. Buni yaqqol isboti tariqasida yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 05-mart kuni o'tkazilgan *“Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy Kengashning kengaytirilgan yig'ilishi”*da korrupsiyaga qarshi kurashish doimiy jarayon ekanligini aytib, bu borada dolzarb masalalarni va kelgusi vazifalarni ko'rsatib o'tgan. Shuningdek, ushbu yig'ilishda korrupsiyaning yangi ko'rinishi bo'lmish kiberkorrupsiyani o'rganish, u bilan bog'liq zarur normativ-hujjatlarni ishlab chiqish shartligini ta'kidlaganlari bejiz emas.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida, 2025-yil 8-iyulda qabul qilingan *“O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senatining 2025-yil ikkinchi yarim yilligiga mo'ljallangan*

ish rejasi to'g'risida"gi KQ-208-V-sonli O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senati kengashining qaroriga ilova qilingan ish rejasining "Qonun ijodkorlik faoliyat" deb nomlangan birinchi bobi to'rtinchi qismida "Kiberkorruptsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asoslarini shakllantirish bo'yicha quyidagi asosiy vazifalar ilgari surilgan[4]:

1. Kiberkorruptsiya bo'yicha amaliyotdagi muammolarni o'rganish;
2. Kiberkorruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy baza holati, jumladan xalqaro tajribani o'rganish va tahlil qilish;
3. Tahlil natijalariga ko'ra tegishli qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar tayyorlash. Bunda: kiberkorruptsiyaga oid tushunchalar, tamoyillar va davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash, bu borada davlat organlarining vazifa va vakolatlarini aniqlashtirish; davlat organlari va tashkilotlarida kiberkorruptsiyaning oldini olishga qaratilgan shaffoflik, hisobdorlik va raqamli iz qoldirish mexanizmlarini takomillashtirish kabi qator masalalarga e'tibor qaratish;
4. Takliflarni ekspertlar ishtirokida muhokama qilish;
5. Qonun loyihasi bo'yicha zarur hujjatlarni tayyorlash.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, **kiberkorruption** jinoyat bilan bog'liq milliy va xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy mulohazalarga to'xtalib, kiberkorruptsiya tushunchasiga ilmiy jamoaning mualliflik ta'rifini hamda ushbu jinoyatning zarur belgilari, kiberkorruption jinoyatlar bilan bog'liq kamchiliklar va ularga yechim bo'luvchi tavsiyaviy ahamiyatga ega takliflarni taqdim etgan holda ushbu mavzuni yoritib berishga bel bog'laganmiz.

Kiberkorruptsiya tushunchasiga oid milliy va xorijiy olimlarining mulohazalariga to'xtalishdan avval, **kiberkorruptsiya** – korruptsiya va kiberjinoyatchilik tushunchalarining birikmasi ekanligini inobatga olib, ushbu terminlarning mohiyati yoritib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Korruptsiya (lotincha: *corrumpō* – aynish, poraga sotilish) – mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste'mol qilishidan iborat amaliyot[13].

2017-yil 03-yanvarda qabul qilingan "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 419-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasida esa, **"Korruptsiya – bu shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir[3]"** degan mazmunda ta'rif berilgan.

Shuningdek, *axborotni egallash, uni o'zgartirish, yo'q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig'indisi* esa **kiberjinoyatchilik** hisoblanishini, shu bilan birga, **kibermakon** — *axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan virtual muhit* ekanligini hamda kiberxavfsizlik bilan bog'liq bir qancha tushunchalarning ta'rifini 2022-yil 15-aprelda qabul qilingan "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi 764-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasida ko'rish mumkin[2].

Kiberjinoyatlar turli xil shakllarda yuzaga keladi. Ular quyidagi asosiy kategoriyalar bo'yicha tasniflanadi[6; 5-b.]:

1. **Ma'lumotlar o'g'irlash.** Internet foydalanuvchilarining shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarini o'g'irlash uchun ishlatiladigan turli xil hujumlar, masalan, phishing (soxta xat yoki saytlar orqali), viruslar va zararli dasturlar.

2. **Denial of Service (DoS) hujumlari.** Tizimning ish faoliyatini to'xtatish uchun amalga oshirilgan hujumlar. Bu turdagi hujumlar serverlarni ko'p so'rovlar bilan to'ldiradi, natijada tizim ishdan chiqadi.

3. **Moliyaviy firibgarliklar.** Kiberjinoyatchilar bank tizimlariga yoki onlayn to'lov tizimlariga kirib, firibgarliklar orqali moliyaviy zarar keltirishi mumkin.

4. **Hujumlar va zararli dasturlar.** Kompyuterlarga kirish orqali zararli dasturlarni (spyware, ransomware va boshqalar) joylashtirish va foydalanuvchi ma'lumotlarini o'g'irlash.

5. **Onlayn xaridlar va savdo sohasidagi firibgarliklar.** Internetda onlayn savdo va xaridlar orqali foydalanuvchilarni aldaydigan tizimlar va boshqalardan iborat.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ko'rishimiz mumkinki, korrupsiya va kiberjinoyatchilik tushunchalariga to'liq ta'riflar tegishli normativ-hujjatlarda mustahkamlab qo'yilganligi ushbu sohalarni o'rgananlik darajasi yuqoriligidan dalolat beradi.

Kiberkorrupsion jinoyatlar o'z navbatida kiberjinoyatlarning muayyan turi hisoblansa-da, lekin, yurtimizda "kiberkorrupsiya" tushunchasiga to'liq ta'rif berilmagan. Kiberkorrupsiya yurtimizning sud-huquq tizimi uchun mutlaqo yangi termin bo'lib kirib kelganligi va yetarli darajada o'rganilmaganligidadir. Shu sababli, ushbu terminga mos ta'rifni berish uchun milliy hamda xorijiy olimlarning fikrlarini o'rganishimiz lozim.

Yuridik fanlar doktori, professor va ilmiy kotib **A.Rasulevning** fikricha, *"kiberkorrupsiya – korrupsiyaning yangi shaklidir. Kiberkorrupsiya zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi, pora sifatida odatda kripto-aktivlar namoyon bo'ladi. Shu sababli "nostandart qimmatliklar" (turli kriptovalyutalar, tokenlar yoki virtual maydondagi boshqa moddiyatlar) ko'rinishida pora olish kiberkorrupsiya sifatida baholanishi mumkin[7; 392-b.]".* Ushbu ta'rif qisman to'g'ri deb qabul qilsak bo'ladi, lekin umumiy e'tibor pora predmetiga qaratilgan hamda bu ta'rifda pora olish jinoyatini o'zi bilan kiberkorrupsion jinoyat sifatida aks ettirilgan, ammo, bizga ma'lumki, korrupsion jinoyatlar sifatida nafaqat pora olish balki pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish va boshqa jinoyatlar bilan birga jinoyatlar majmui sifatida ham uchraydi.

Yurist **S.Berdiyevning** ta'kidlashicha, kiberkorrupsiya bu *"mansabdor shaxs yoki davlat xizmatchisining kibertexnik vositalar orqali kibermakondan foydalanib qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan kiberxavfsizlik hodisasini amalga oshirishga qaratilgan korrupsiya sanaladi[8; 670-b.]".* Ushbu ta'rif ham sodda qilib ishlangan bo'lib, qisman to'g'ri deyishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi huquq magistri **J.Xakimov** o'zining ilmiy maqolasida kiberkorrupsiyani quyidagicha deb ta'rif bergan, *"Iqtisodiy faoliyatning raqamli sohalarga ko'chishi korrupsiyaga yangi yo'llar va imkoniyatlar yaratadi. Hozirda savdo va davlat xizmatlarining katta qismi internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilmoqda, bu esa yangi xavflarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun, kiberkorrupsiya — bu zamonaviy raqamli iqtisodiyotning eng muhim muammolaridan biridir[9; 412-b.]".* Ushbu ta'rifda kiberkorrupsiyani ayrim jihatlar yoritilgan bo'lsada, lekin yaqqol tushunarli bo'lgan hamda kiberkorrupsiyani yoritib beruvchi mulohazani ko'rganimiz yo'q.

Yuridik fanlar nomzodi, dotsent **Popova Svetlana Aleksandrovna** va **Akulin Sergey Valentinovich**larning talqinicha, *“Raqamli korrupsiya (kiberkorrupsiya) – bu mansabdor shaxsning o‘z vakolatlaridan shaxsiy manfaat ko‘rish maqsadida raqamli texnologiyalar orqali sodir etilishidir[10; 181-b.]”*. Ushbu ta‘rif sodda va tushunarli bo‘lib, mansabdor shaxs ushbu huquqbuzarlik uchun odatiy hisoblangan foyda (pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar, xizmatlar) o‘rniga vakolatlardan suiiste‘mol qilgani uchun raqamli vositalar ko‘rinishida daromad olishini bildiradi. Mazkur raqamli vositalar foydalangan holda sodir etilayotganligi o‘z navbatida porani virtual valyuta ko‘rinishida bo‘lishini anglatadi.

Professor **P.Wawrosz** va **J.Lanskylarning** fikrlaricha, *“kiberkorrupsiya jinoyatining sodir etilishi bir qancha murakkab jarayon bo‘lib, sodda turidagi korrupsion jinoyatlardan anonimligi yuqoriligi bilan farq qiladi. Ya‘ni, pora oluvchi bilan pora beruvchi o‘zaro yoki vositachi ishtirokida porani naqd pul ko‘rinishida taqdim etish maqsadida uchrashishi yoki bank hisob raqamlariga shubhali pullarni tranzaksiya qilinishi o‘z navbatida tegishli tartibda nazorat qilinadigan bo‘lsa ushbu jinoyatlarni oson aniqlash mumkinligini ko‘rsatadi, ammo, kriptovalyutalardan foydalangan holda korrupsion shartnoma bo‘yicha tomonlarga poralarni korrupsion agentlar orqali yetkazilishi juda anonim tarzda amalga oshiriladi va bu jarayon korrupsion xatti-harakatlarni aniqlash va fosh qilish xavfini yo‘q qiladi[11; 695-b.]”*. Ushbu ta‘rifdan ko‘rinib turibdiki, olimlar tomonidan kiberkorrupsiyani oddiy turdagi korrupsiyadan sodir etilish usuli bilan farq qilinish jihatlari yoritilgan, ammo, *“kiberkorrupsiya”* tushunchasiga ta‘rif deyarli aks ettirilmagan.

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini inobatga olib, **kiberkorrupsiya** tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta‘rifi berildi:

*“**Kiberkorrupsiya** – bu axborot texnologiyalardan foydalangan holda sodir etiladigan, kibermakondagi moddiy qiymatliklardan mulkiy manfaatdor bo‘lish evaziga shaxsning o‘z mansabidan qonunga xilof ravishda foydalanishi yoki mansabdor shaxsni noqonuniy xatti-harakatlarini bajarishi uchun taqdim etilishi, shuningdek, vositachilik qilinishi demakdir”*.

Sodda qilib aytganda, kiberkorrupsiya — bu raqamli texnologiyalardan foydalangan holda sodir etiladigan, anonimligi va latentligini yuqori bo‘lgan korrupsion jinoyatdir.

Ushbu turdagi kiberkorrupsion jinoyatlarning zarur belgilari kiberjinoyatlarning belgilariga o‘xshash hisoblanib, quyidagilar bilan asoslanadi:

1) kiberkorrupsiya – kibermakonda sodir etiladi, ya‘ni moddiy qiymatliklar asosan elektron platformalar, elektron to‘lov tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar va blokcheyn tizimlardan foydalangan holda pora beruvchidan yoki pora olish-berishda vositachilik qiluvchi orqali pora oluvchiga yetkaziladi;

2) kiberkorrupsion jinoyatning predmeti naqd pullarda emas balki, onlayn tranzaksiyalar orqali elektron hisobga tushuvchi pul (har qanday valyuta bo‘lishi mumkin), kriptovalyuta va raqamli aktivlar ko‘rinishida bo‘ladi;

3) kiberkorrupsiya kibermakonda sodir etilganligi evaziga qachon va kim tomonidan moddiy qiymatliklar yuborilganligi va olinganligi anonim bo‘lishi va bu bir buncha qiyinchiliklarni vujudga keltirishi bilan asoslanadi;

4) kriptovalyutalarni va ba‘zi raqamli aktivlarni davlat tomonidan nazoratga olinmaganligi o‘z navbatida kiberkorrupsiyaning latent bo‘lib qolishiga olib keladi.

Kiberkorrupsion jinoyatlarning bir muhim belgisi sifatida ushbu jinoyatning predmeti tariqasida pul, kriptovalyuta yoki kriptoaktivlar bo‘lishi mumkinligini ta‘kidlagan bo‘lsak-da,

lekin kriptovalyuta va kriptoaktivlarni keng ma'nodagi tushunchalarini yoritilmagan. Shu sababdan, ushbu tushunchalarga birma-bir aniqlik kiritishimiz mavzuyimizni oydinlashtirishimizga batafsil yordam beradi.

Kriptovalyuta – raqamli yoki virtual shakldagi har qanday valyuta bo'lib, tranzaksiyalarni muhofaza qilish uchun shifrlash (kriptografiya) texnologiyasidan foydalaniladi. Kriptovalyutalarni chiqarish yoki tartibga solish uchun markaziy tizim mavjud emas. Tranzaksiyalarni qayd etish va yangi birliklarni chiqarish uchun markazlashtirilmagan tizimdan foydalaniladi[16].

Kripto-aktiv — ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrtdagi raqamli yozuvlar yig'indisi bo'lgan, qiymati va egasiga ega mulkiy huquq[5].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, dunyo bo'ylab 25.000 dan ortiq turli kriptovalyuta blokcheynlari mavjud bo'lib, ular 300 milliondan ortiq foydalanuvchi tomonidan ishlatiladi va 93 milliondan ortiq foydalanuvchi turli xususiyatlarga ega kriptovalyuta blokcheyn hamyonlaridan foydalanadi. 18.000 dan ortiq kompaniyalar kriptovalyutada to'lovlarni qabul qiladi[14].

Kiberkorruptsiya jinoyatlarni muhim o'ziga xos jihati bu albatta jinoyat predmeti tariqasida kriptovalyuta va kripto-aktivlardan foydalanilishidir ushbu jinoyatning anonimligini oshirish hamda latent jinoyat sifatida qolishini ta'minlash, shuningdek ushbu jinoyatni sodir etgan shaxsning aybini isbotlashda qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Buning asosiy sababi, kriptovalyuta va kripto-aktivlarni nazorat qilish imkonsiz deb qaralishidadir. Bu fikrning negizida ushbu mavzu doirasida to'liq izlanishlar olib borilmaganligi hamda yetarli darajada normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilmaganligida desak haqiqatga yaqin bo'ladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda 5 ta qonun, 13 ta Prezident qarori va farmoni, jami 18 ta normativ-huquqiy hujjat korruptsiyaga qarshi kurash mavzusiga doir, kiberxavfsizlik mavzusida esa 1 ta qonun, 9 ta prezident qaror va farmonlari, 14 ta Vazirlar Mahkamasi qarorlari, jami 24 ta normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Shu bilan birga, kriptovalyuta va kripto-aktivlar bilan bog'liq mavzularda esa normativ-huquqiy hujjatlar bazamiz jami 4 ta bo'lib, ular 2 ta qonun va 2 ta Prezident qarorlaridan iborat[15].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, kiberkorruptsiyaga qarshi kurash konsepsiyasini shakllantirish va uni samarali amalga oshirish uchun bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur bo'lib, avvalo, "kiberkorruptsiya" tushunchasiga berilgan mualliflik ta'rifini qonunchilik darajasida mustahkamlash, ushbu jinoyatga qarshi kurashishning asosiy mexanizmlarini belgilash, tegishli vakolatli davlat organlarini ko'rsatish hamda ularning vazifalari va vakolatlarini, shuningdek, ushbu jinoyat sodir etganlik uchun jinoyat qonunchiligimizda javobgarlikni belgilash, "kiberkorruptsiya" jinoyatini tergov qilishning kriminalistik jihatlarini o'rganish, ushbu jinoyatni tergov qilish metodikasini milliy hamda xorij tajribalariga tayangan holda ishlab chiqish lozim.

Shu bilan birga, normativ-huquqiy asoslar salmog'i kam bo'lgan sohalardan biri ya'ni, kriptovalyuta va kripto-aktivlar muomalasi bo'yicha ham huquqiy bazani kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda ularning muomalasini tartibga soluvchi, nazorat qilish mexanizmlarini, shuningdek, elektron tijoratdagi tartib va qoidalarni aniq belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish kerak bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi// URL: <https://lex.uz/docs/-111453#-310589>.

2. 2022-yil 15-aprelda qabul qilingan “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi 764-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-5960604>.
3. 2017-yil 03-yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 419-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni// URL: <https://lex.uz/docs/-3088008>.
4. 2025-yil 8-iyulda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senatining 2025-yil ikkinchi yarim yilligiga mo‘ljallangan ish rejasi to‘g‘risida”gi KQ-208-V-sonli O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senati kengashining Qarori// URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7646366>
5. 2022-yil 24-noyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan kripto-aktivlarni chiqarish, chiqarishni ro‘yxatdan o‘tkazish va muomalaga kiritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 61-sonli buyrug‘i. URL: <https://lex.uz/docs/-6299481>.
6. “Kiberjinoyat va uni oldini olish”:. Ilmiy maqola// Sh.Y.Mahkamova, Sh.D.O‘rinov. Eng yaxshi intellektual tadqiqotlar. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/tbir/article/view/99860>.
7. “O‘zbekistonda kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish kuchaytiriladi”:. Ilmiy maqola// A.Rasulev. Jamiyat va innovatsiyalar ilmiy jurnali (2025-yil). URL: <https://inlibrary.uz/index.php/socinov/article/view/124198>.
8. “Kiberkorrupsiyaning xalqaro-huquqiy jihatlar”:. Ilmiy maqola// S.Berdiyev. Jamiyat va innovatsiyalar ilmiy jurnali (2025-yil). URL: <https://inlibrary.uz/index.php/socinov/article/view/124165>
9. “Kiberfiribgarlik va kiberkorrupsiya – raqamli dunyodagi murakkab jinoyatlar”:. Ilmiy maqola// J.Xakimov. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari ilmiy jurnali(2025-yil). URL: <https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/3350>
10. “Raqamli texnologiyalar bilan bo‘g‘liq sodir etiladigan korrupsiyaning yangi ko‘rinishlari”:. Ilmiy maqola// Popova S.A., Akulin S.V. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/novye-formy-korrupsii-svyazannye-s-tsifrovymi-tehnologiyami>.
11. Wawrosz, P., & Lánský, J. (2021). Cryptocurrencies and corruption. Ekonomicky Casopis, (2021-y), 687-705.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 05-martdagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqidan iqtibos.
13. Wikipedia erkin ensklopedya. URL: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Korrupsiya>.
14. <https://www.ic3.gov>.
15. <https://lex.uz>.
16. <https://kaspersky.ru/resource-center/definitions/what-is-cryptocurrency>.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).